KIMYOVIY ADDIKTIV BUZILISHLARDA IJTIMOIY MOSLASHUV DARAJASI VA KOMPLEKS TIBBIY-IJTIMOIY REABILITATSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Turayev Bobir Temirpulotovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Kimyoviy addiktiv buzilishlar zamonaviy narkologiya va psixiatriyada dolzarb muammolardan biridir. Ushbu kasalliklar nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham belgilanadi, bu esa bemorlarning ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Samarali reabilitatsiya dasturlari faqat medikamentoz davolash bilan cheklanmay, balki psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvni tiklashni ham o‘z ichiga olishi kerak. Shu sababli, kimyoviy addiktiv bemorlarda ijtimoiy moslashuvni baholash va kompleks tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya samaradorligini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Kimyoviy addiktiv buzilishlarga chalingan bemorlarda ijtimoiy moslashuv darajasini baholash va kompleks tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya dasturining samaradorligini aniqlash hamda bemorlarning psixologik, ijtimoiy va klinik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligini o‘rganish.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo‘yicha Samarqand viloyati filialida amalga oshirildi. Tadqiqotda kimyoviy addiktiv buzilishlarga chalingan jami 140 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar tadqiqot dizayniga muvofiq ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh - 100 nafar bemor va nazorat guruhi - 40 nafar bemor. Psixopatologik simptomlarni aniqlash uchun Bek depressiya shkalasi; Spielberger-Xanin shkalasi; MoCA testi; ASI (Addiction Severity Index); hayot sifatini baholash uchun esa WHOQOL-BREF so‘rovnomasi qo‘llanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kimyoviy addiktiv buzilishlarga chalingan bemorlarda psixopatologik simptomlar keng tarqalgan. Depressiya (BDI): Asosiy guruhda bemorlarning 68,0%ida o‘rtacha va og‘ir darajadagi depressiv simptomlar kuzatildi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 42,5% ni tashkil qildi ($p<0,05$). Yengil depressiv simptomlar mos ravishda 22,0% va 35,0% bemorlarda qayd etildi. Xavotir (Spielberger-Xanin): Asosiy guruhda yuqori reaktiv xavotir 72,0% bemorlarda, shaxsiy xavotir esa 64,0% holatda aniqlangan. Nazorat guruhida mos ravishda 45,0% va 40,0% bemorlarda yuqori daraja qayd etildi ($p<0,05$). Kognitiv funksiyalar (MoCA): Asosiy guruh bemorlarining 58,0%ida yengil va o‘rtacha darajadagi kognitiv buzilishlar kuzatildi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 30,0% ni tashkil etdi ($p<0,05$). Normal kognitiv ko‘rsatkichlar asosiy guruhda 42,0%, nazorat guruhida 70,0% bemorlarda qayd etildi. Addiksiya og‘irligi (ASI): Asosiy guruhda yuqori darajadagi addiktiv buzilishlar 66,0% bemorlarda, o‘rtacha daraja 24,0% holatda aniqlangan. Nazorat guruhida mos ravishda 37,5% va 40,0% bemorlarda kuzatildi ($p<0,05$). Hayot sifati (WHOQOL-BREF): Past hayot sifati ko‘rsatkichlari asosiy guruhda 62,0% bemorlarda aniqlangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 35,0% ni tashkil etdi ($p<0,05$). Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki: depressiya darajasi va addiksiya og‘irligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r=0,62$; $p<0,05$), shuningdek, xavotir darajasi va relaps xavfi ham sezilarli ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatdi ($r=0,58$; $p<0,05$). Kognitiv buzilishlar darajasi esa hayot sifati ko‘rsatkichlari bilan teskari bog‘liq bo‘ldi ($r=-0,55$; $p<0,05$).

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kimyoviy addiktiv bemorlarda depressiya, yuqori xavotir darajasi va kognitiv buzilishlar keng tarqalgan bo‘lib, ularning addiksiya og‘irligi va hayot sifati bilan sezilarli bog‘liqligi aniqlangan ($p<0,05$). Ushbu ma’lumotlar psixopatologik simptomlarni erta aniqlash va kompleks tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya dasturlariga kiritish zarurligini ko‘rsatadi.